



**O'QUVCHILAR BILIMINI MUSTAQIL FIKRLASHGA UNDOVCHI
MATNLAR USTIDA ISHALSH**
(PISA xalqaro tadqiqoti asosida)

Kamshat Baymenova
Berdaq nomidagi QQDU
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga oid ta'limiy topshiriqlar borasida so'z yuritiladi. Xususan, o'quvchilar bilimni mustaqil fikrlashga undovchi matnlar asosida atroflicha tatbiq qilingan.

Kalit so'zlar: PISA, xalqaro tadqiqot, og'zaki nutq, yozma nutq, o'qish savodxonligi, matn

Kirish. "Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlar muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq..." - degan fikrlarni aytib o'tgan edilar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda ta'lim sohasidagi tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi avvalo nufuzli ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik o'rnatilayotganidan dalolatdir. Jumladan, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development - OECD) o'rtasida shartnoma imzolandi. Ushbu tashkilot tomonidan olib boriladigan xalqaro tadqiqotlarda (PISA, PIRLS, TIMMS, TALIS) O'zbekiston ham faol qatnashishga kirishdi. Ushbu tadqiqotlar ichida PISA tadqiqoti asosiy o'rinni egallaydi. PISA (The Programme for International Student Assessment) - o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur hisoblanadi. [2]. Bu dasturda 15-16 yoshli o'quvchilar ishtirok etishlari mumkin. PISA da o'quvchilarning bilim sifati 5 yo'nalish bo'yicha aniqlanadi: O'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, moliyaviy savodxonlik, kompyuter savodxonlik.

O'zbekiston esa o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishlari bo'yicha PISA-2022 tadqiqotlarida ishtirok etdi. PISA tadqiqotlari uch yilda bir

marotaba o‘tkaziladi. Keyingi PISA tadqiqotlarini o‘tkazish 2025-yilga to‘g‘ri keladi. Shu sababli kelajakda ham o‘quvchilarni dastur yo‘nalaishlari bo‘yicha savodxonliklarini yanada yuqori ko‘rsatkichga yetkazish zarurati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Buborada yurtimizda qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assostiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu IEA tashkiloti 6 yildan ko‘proq vaqt mobaynida ta’limni qiyosiy o‘rganish sohasida yetakchi tashkilot bo‘lib kelmoqda [4]. Bu tashkilot ta’lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta’sirini chuqurroq o‘rganish maqsadida ta’lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi va bu tadqiqotlar ta’lim jarayonlari va natijalarini ko‘rib chiqib, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi o‘zaro bog‘liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o‘tkaziladi. Shuningdek, o‘rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi [3]. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash yordamchi omillarining murakkab turkumi borasida ma’lumot yig‘ish qiyin, lekin amalga oshirsa bo‘ladigan ishdir. PISA ikki qismdan iborat: test va so‘rovnoma. Test qismi o‘quvchilar g‘oya berish, uni tahlil etish va takomillashtirish bilan bog‘liq vazifalarda o‘zlarining ijodiy yondashuv kognitiv jarayonlarini naqadar ishga sola olishlari haqida ma’lumot beradi. So‘rovnoma ushbu ma’lumotni o‘quvchi kreativ fikrlashining boshqa yordamchi omillari borasidagi ma’lumot bilan, jumladan, ijodiy yondashuv (ochiqlik, maqsad sari ishtiyoq va ishonch), maktab muhiti haqidagi tasavvurlari, maktab va uning tashqarisida shug‘ullanadigan faoliyat kabi ma’lumotlar bilan to‘ldiradi.

Umuman olganda, tadqiqotchilar kundalik ijodkorlik amaliyot va ta’lim orqali takomillashtirilishi mumkin degan xulosada yakdildir. Demak, tug‘ma talantning ahamiyatini kamaytirish hamda takomillashtirish mumkin bo‘lgan shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ko‘proq urg‘u berish maqsadida PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo‘nalishining baholashi mana shu kichik kreativlik bilan bog‘liq vazifalarga asosiy e’tiborni qaratadi. Kreativ fikrlashning bu turi nafaqat insho yozish yoki rasm chizish kabi asosan ichki dunyoni aks ettirish talab qilinadigan ta’lim kontekstiga, balki g‘oya berish masalalarini tahlil etish, jamiyatdagi muammolarni hal etishga aloqador bo‘lgan kengroq sohalarga ham taalluqlidir.

Matnlar axborot berishga emas, balki o‘quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi lozim sanaladi. Jumladan:

- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

- ta’limning kundalik hayot va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqligini ta’minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish kompetentligini shakllantirilishiga, boshqa o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

- rasmlar ko‘rinishidagi illustratsiyalar: chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo‘lishi;

- yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta’riflar va shu kabilar lug‘at ko‘rinishida ifodalangan bo‘lishi lozim.

Tahlil va natijalar. O‘quvchilarni ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi 9-sinf o‘zbek tili fanidan quyidagi matnda qo‘llash mumkin bo‘lgan PISA topshiriqlari talablariga va didaktik talablarga mos bo‘lgan quyidagi topshiriqdan foydalanishni lozim deb bilamiz. 9-sinf o‘zbek tili darsligining 38-betida berilgan “Tabiat muvozanati-hayot muvozanati” matni o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi yoki audio yozuv varianti tomonidan eshittiriladi:

Tabiat muvozanati-hayot muvozanati

Ayrim kishilar butun bahor-u yoz ko‘zimizni yashnatgan, bahri dilimizni musaffo havosi bilan yayratgan barglarni kuzda xazonlardan qutulish uchun yoqadilar. To‘kilgan yaproqlarni to‘plab yoqish o‘zlari uchun qanchalik zararli ekanini fahmlamaydilar.

Quruq o‘tinni yoqish jarayonida juda xavfli bo‘lgan dioksin moddasi ajralib chiqadi. Yoqish o‘rniga yaproqlarni bir joyga to‘plab, ho‘llab ko‘mish kerak. O‘shanda chiqindilar ma’lum vaqt o‘tgach tayyorgina o‘g‘itga aylanadi. Dioksin oshqozon-ichak yo‘li orqali inson tanasiga kirgach, oshqozon osti bezi, o‘pka, immunitet tizimini zararlaydi. Ko‘pincha o‘sma va og‘ir kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Inson tabiatning bir qismi ekanini tushunishi, tabiatga ko‘rsatayotgan ta’siri qaytib kelib o‘ziga salbiy ta’sir etishini anglashi lozim.

1-topshiriq: Javobi tanlanadigan test

Quyidagi jumalarning qaysi biri matn uchun xos emas?

A. Dioksin oshqozon-ichak yo‘li orqali inson tanasiga kirgach, oshqozon osti bezi, o‘pka, immunitet tizimini zararlaydi

B. Inson tabiatning bir qismi ekanini tushunishi, tabiatga ko‘rsatayotgan ta’siri qaytib kelib o‘ziga salbiy ta’sir etishini anglashi lozim

C. To‘kilgan yaproqlarni to‘plab yoqish o‘zlari uchun qanchalik foydali ekanini fahmlamaydilar

D. Quruq o‘tinni yoqish jarayonida juda xavfli bo‘lgan dioksin moddasi ajralib chiqadi.

2-topshiriq: Bir necha javobli test

1.	<i>To‘kilgan yaproqlarni to‘plab yoqish juda zararlidir</i>	HA-YO‘Q
2.	<i>Yaproqlarni bir joyga to‘plab, keyin yoqish kerak</i>	HA-YO‘Q
3.	<i>Chiqindilar ma’lum vaqt o‘tgach tayyorgina o‘g‘itga aylanadi.</i>	HA-YO‘Q
4.	<i>Dioksin oshqozon-ichak yo‘li orqali inson tanasiga kirgach, oshqozon osti bezi, o‘pka, immunitet tizimini zararlaydi.</i>	HA-YO‘Q

3-topshiriq. Javobi yoziladigan test:

- Kuzda to‘kilgan yaproqlarni nima qilish kerak?
- Quruq o‘tinni yoqish nima uchun xavfli?
- Dioksin moddalari qaysi a‘zolarimiz uchun zararli?

Ushbu topshiriqning afzalligi shundaki topshiriqda ifodalangan fikrlar ilmiy matnlar va rasmlar orqali o‘quvchiga tushunarli holda bayon etilgan va bugungi kunda Ona tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muommolar haqida ham fikr yuritishga imkon beradi. Berilgan ilmiy ko‘rinishdagi matnlarni turli jadval asosida yoki rasm ko‘rinishiga qarab ma‘lumotni matn ko‘rinishida bayon eta olishlari mumkin bo‘ladi. O‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, hayotiy vaziyatlarga fan nuqtai-nazaridan qarash, moliyaviy tomondan sarflanayotgan pul miqdorlarini iqtisod qilishga o‘rgatishda ushbu topshiriq kabi topshiriqlar kutilgan natijalarni beradi. Shuningdek, topshiriq yuzasidan umumiy xulosalar qilinganda albatta o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. O‘quvchilarga o‘zbek tili fanini o‘qitishda bu kabi PISA topshiriqlariga o‘xshash topshiriqlardan foydalanib ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish va o‘quvchilarni fan va hayotiy nuqtai nazar bilan qarashga o‘rgatish orqali ularda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mumkin. O‘quvchilarni fan, texnika, dunyo yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor qilish, ilg‘or tajribalarni o‘rgatish, o‘zbek tili fanining rivojlanish istiqbollari har bir darsda o‘quvchilarga ko‘rsatib o‘tish orqali hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O‘qituvchilar innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydigan (va bu bilan bog‘liq xatarlarni qabul qiluvchi) maktab va ta‘lim siyosati muhitida ta‘lim berishda ijodiy yondashuvga, o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga e‘tibor qaratadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning rang-barang g‘oyalarini, tavakkal qarorlar qabul qilishlarini va sinfdoshlari bilan murakkab masalalarni hal etishda hamkorlik qilishlarining ahamiyatini anglashlari kerak. Ushbu yondashuvlar asnosida kreativ fikrlash malakasini, ma‘lum muddat olsa ham, o‘rgatish mumkin ekanligiga pedagogning ishonchi yotadi. Beghetto va Kaufman (2014 [97]) o‘qituvchilar sinfdagi muhit berayotgan noaniq ma‘lumotlarni nazorat qilishlari hamda o‘zlari ham o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undovchi muhitni yaratishda faol ishtirok etishlarini taklif qiladi. Masalan, buni o‘quvchilarga maqsad qo‘yish, uning bajarilayotganini monitoring qilish, jo‘yali g‘oyalarni aniqlash hamda samarali guruh ishi uchun jamoaviy mas‘uliyatni bo‘yniga olishda ko‘proq erkinlikni berish orqali amalga oshirish mumkin. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘quvchilarga ijodiy fikrlash qachon va qay yo‘sinda vazifaga mos kelishini o‘rganishda yordam berishlari kerak.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. “Халқаро тадқиқотларда бошланғич синф ўқувчиларининг ўқиш саводхонлигини баҳолаш” (Бошланғич синф ўқитувчилари, методистлар ва соҳа мутахассислари учун методик қўлланма). Таълим инспекцияси ҳузуридаги Таълим

сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази. Тошкент, 2019 йил. 92 б.

2.U.N.Tashkenbayev. “O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma 1” Toshkent, 2020-yil, 4, 64-65 b

3. Koraev S.B., Kurbonova M.F. “Problems and ways to improve student learning competencies in primary education”. Academic research in educational sciences, Tashkent, 2020. Volume 1, ISSUE 4, pp 795-801

4. Qorayev .B., Allayorova S.B. “Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta’lim muhitini yaratish”. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi 2021 й. ISSN: 2181-1776 132-137 b.

5. Қудратова Азиза Исматиллаевна. Функционал саводхонликни шакллантирувчи топшириқларга қўйиладиган талаблар. INDIA INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. 2022